

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GWARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich	



UDK: 657.421.1

PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI

Eshonqulov Akmal Qudratovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0003-1826-6715Email: akmaleshonqulov81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada pul mablag'lari va ekvivalentlarini tan olish, ta'rifini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishdagi dolzarb muammolar qayd qilingan. Pul mablag'lari bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib pul mablag'lari va pul ekvivalentlari tarkibini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Bugungi kunda pul mablag'lari hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari taklif etildi.

Kalitli so'zlar: pul mablag'lari, pul ekvivalentlari, operatsion faoliyat, investitsiyaviy faoliyat, moliyaviy faoliyat, kichik kassa.

Abstract: This article identifies current issues related to the recognition and definition of cash and cash equivalents in accordance with international standards. The author develops a definition of cash based on the study's findings. Drawing on international experience, proposals are presented to improve the classification of cash and cash equivalents. In addition, the paper proposes the main directions for improving cash accounting under current conditions.

Keywords: cash, cash equivalents, operating activities, investing activities, financing activities, petty cash.

Аннотация: В статье рассмотрены актуальные вопросы признания и определения денежных средств и их эквивалентов в соответствии с международными стандартами. Разработано авторское определение понятия денежных средств. На основе зарубежного опыта предложены рекомендации по совершенствованию состава денежных средств и их эквивалентов. Также определены основные направления совершенствования учета денежных средств в современных условиях.

Ключевые слова: денежные средства, эквиваленты денежных средств, операционная деятельность, инвестиционная деятельность, финансовая деятельность, мелкая касса.

KIRISH

Bugungi kunda pul mablag'lari va pul ekvivalentlari hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish zarurati quyidagi omillar bilan belgilanadi. MHXSga o'tish milliy standartlarni yaratish bo'yicha vaqt va resurslarni tejaydi. Biz tadqiqot jarayonida MHXSlarni joriy qilishning asosiy zaruriyatlarini sxemalarda aks ettirganmiz.

Pul mablag'lari – bu tashkilotning moliyaviy resurslari bo'lib, har qanday darajadagi va turdagi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashda eng yuqori likvidli aktiv. Uning yetarli darajada mavjudligi korxonalarining kreditorlik qarzlarini o'z vaqtida so'ndirilishini ta'min etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Sh.Sh. Raxmanov (2022) kichik kassadagi pul mablag'lari tushunchasini e'tirof etgan. Muallif: "Pul mablag'lari – majburiyatlarni zudlik bilan to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha turdagi mablag'larni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lari moliyaviy muassasalardagi joriy hisobvaraqlardagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valyutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar hamda muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, korxonaga kassasidagi konkret o'tkazib beriladigan pul hujjatlaridir", deb ta'kidlaydi¹.

Rossiyada chop etilgan maqolalar mualliflari kassa intizomiga ko'proq e'tibor qaratishgan. Jumladan, K. Kilina (2025) kassa intizomining asosiy qoidalariga quyidagilarni kiritadi: "Kassa intizomi qoidalari belgilaydi:

1 Raxmonov Sh.Sh. Xxo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'lari hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishning amaldagi holati Science and Innovation International Scientific Journal ISSN: 2181-3337. 2022 №4



naqd operatsiyalarni tasdiqlash uchun qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi; kassadan naqd pullarni qanday olish va kassadan berish mumkin; qanday maqsadlarga naqd pullarni ishlatish mumkin; naqd pul bilan to'lanayotganda bitimlarni qancha summaga tuzish mumkin; kassa qoldig'ida qancha pullarni saqlash mumkin.²

Moliyaviy hisob 1 bo'yicha darslikda (2010): "Kichik kassa bu avans fondining turli ko'rinishi bo'lib, ushbu fond orqali kunlik xarajatlar uchun zarur bo'lgan naqd pullar ta'min etiladi. Kichik kassalar ko'p turdagi kichik to'lovlar, jumladan, xodimlarning transport xarajatlari, pochta xarajatlari, kanselyariya tovarlari va yetkazib berish bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga oladi."³

B. Nidlz (2003): "Qachonki firmalar cheklar bo'yicha hisob-kitob qilishda noqulayliklar mavjud bo'lsa, kichik kassa fondi (patty cash fund) tashkil etadi, qaysiki bu avans tizimi (imprest system) asosida ishlatiladi", deb ta'kidlaydi⁴.

F. Vud (2024) kassa kitobini ikkita ustunda yuritishni taklif etadi. Muallif: "Kassa kitobi bu kassa schyoti va bank schyotlarining bitta kitobga birlashtirilishiga aytiladi", deb ta'rif berib, ushbu kassa kitobining shakllarini amaliy misollarda yoritib beradi⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda pul mablag'lari hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tkazish jarayonini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil va sintez usullari orqali milliy buxgalteriya hisobi tizimi bilan MHXS talablari o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida pul mablag'lari hisobining milliy standartlar va IFRS (xususan, IAS 7 "Cash Flow Statements") bo'yicha yuritilishi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSH buxgalteriya hisobidagi kichik kassa (patty cash) — kompaniyaning kichik miqdordagi naqd pullarini saqlash uchun mo'ljallangan va asosan kichik to'lovlar uchun foydalaniladigan kassa. "Kichik pul fondi"ning miqdori qat'iy belgilangan. Kichik naqd pul vaqti-vaqti bilan (masalan, haftada bir marta) sarflangan aniq miqdor bilan to'ldirilishi kerak, bu esa uni belgilangan miqdorga qaytaradi. Naqd pul berilganda, xarajat sanasi, miqdori va maqsadi ko'rsatilgan vaucher beriladi. Naqd pul qoldig'i va vaucherlarning umumiy qiymati birgalikda kichik pul fondining belgilangan miqdorini tashkil qiladi.⁶

Onlayn elektron kassani tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

U.A. Nurmanov (2022): "BHXS doirasida pul mablag'lari sifatida quyidagilar tan olinadi: bankdagi naqd pul mablag'lari (cash at bank), mayda pul mablag'lari (patty cash), naqd pul ekvivalentlari (cash equivalents), pul hujjatlari, yozuvlar (notes), cheklar (checks), bankdagi omonatlar (bank deposits)."⁷

Korxonalar faoliyatida eng muhim masalalardan biri bu kapital ta'minoti, uning harakati va boshqarilishi masalasidir.

Ma'lum bir vaqt momentida olingan firmaning umumiy kapitali barqaror, keyin esa bir muncha vaqt o'tgach o'zgaradi. Korxonada kapital harakati doimiy ravishda sodir bo'ladi. Korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zgaruvchan sharoitlarga doimiy moslashishni talab qiladi, katta kapital qo'yilmalarni keltirib chiqaradigan texnologik takomillashtirish, inflyatsiya, foiz stavkalarining o'zgarishi, soliq qonunlari — bularning barchasi korxonaga kapitalining harakatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun korxonada ichidagi kapital harakatini samarali boshqarish zarur.

Pul mablag'lari aktivlarning eng likvidli toifasi bo'lib, u korxonaga eng katta likvidlik darajasini va shuning uchun harakatlarni tanlash erkinligini ta'minlaydi.

Shu bois, bugungi kunda pul mablag'lari hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish o'ta dolzarb masala hisoblanadi.

E.Yu. Omelchenko, N.A. Borisova ta'kidlashicha: "Rossiyada MHXSlarga o'tishda ijobiy aspektlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- Axborotlarning jozibadorligi oshadi;

2 Kseniya Kilina. Kassovaya dissiplina: kak vesti kassovye operatsii v 2025 godu. // URL: <https://www.moysklad.ru/poleznoe/izmeneniya-v-54-fz/kassovaya-distsiplina-kak-vesti-kassovye-operatsii/>

3 Finansovyy uchët 1. // URL: http://fmc.uz/main.php?cipa=fa1_e_1&t=2&l=no

4 Nidlz B. i dr. Printsipi buxgalterskogo ucheta. –M.:Finansy i statistika, 2003. 496 s. 113-b

5 FRANK WOOD'S BUSINESS ACCOUNTING An Introduction to Financial Accounting FIFTEENTH EDITION // 21.121.140.173:8887/files/koreshare/folders/Frank%20Wood's%20Business%20Accounting_%20An%20Introduction%20to%20Financial%20Accounting-Pearson%20(2021).pdf

6 Kassa v uchete SSHA, melkaya. <https://www.klerk.ru/tool/slovar/buh/40141/?srsltid=AfmBOopBrNaTb40wx4OoGPNEQRl-MyPFavG2qbexjuUS0m5qwpQ0w-qa>

7 Nurmanov U.A. Joriy aktivlar tahlili: nazariya va amaliyot. Monografiya. –T: "Lesson Press" nashriyoti 2022. –205-b. 98-b.



- Hisobotning axborot tashuvchanligi kengayadi;
- Ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligi yaxshilanadi;
- Kompaniya faoliyati tahlili uchun imkoniyatlar kengayadi⁸.

Mualliflar fikriga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, albatta, ushbu ijobiy aspektlarni O'zbekistonda ham qayd etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari deganda tashqi axborot foydalanuvchilar tomonidan korxonaga oid iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni tartibga soluvchi qoidalar, usullar hamda axborotlarning tarkibi va mazmuniga qo'yiladigan talablarni belgilovchi hujjatlar majmuasi tushuniladi.

Xalqaro standartlarni ikkita guruhga ajratish mumkin:

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS) — bu Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qo'mitasi tomonidan 2002-yilgacha qabul qilingan hujjatlar hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) — bu Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha kengash tomonidan 2002-yil va undan keyingi yillarda, hozirgi kungacha qabul qilingan hujjatlar hisoblanadi.

BHXS va MHXSlar qatorini quyidagi 1-jadvalda aks ettiramiz (1-jadval).

1-jadval

Buxgalteriya hisobi va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibi⁹

A. BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI (BHXS)	
Conceptual Framework for Financial Reporting	Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari
IAS 1 Presentation of Financial Statements	1-son BHXS Moliyaviy hisobotni taqdim qilish
IAS 2 Inventories	2-son BHXS Zaxiralar
IAS 7 Statement of Cash Flows	7-son BHXS Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot
IAS 8 Accounting Policies, Changes in Accounting Estimates and Errors	8-son BHXS Hisob siyosati, hisob baholashlaridagi o'zgarishlar va xatolar
IAS 10 Events after the Reporting Period	10-son BHXS Hisobot sanasidan keyingi hodisalar
IAS 27 Separate Financial Statements	27-son BHXS Alohida moliyaviy hisobot
IAS 12 Income Taxes	12-son BHXS Foyda solig'i
IAS 16 Property, Plant and Equipment	16-son BHXS Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar
IAS 20 Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance	20-son BHXS Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordami to'g'risidagi axborotlarni ochiqlash
IAS 21 The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates	21-son BHXS Valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri
IAS 26 Accounting and Reporting by Retirement Benefit Plans	26-son BHXS Pensiya dasturlari bo'yicha hisob va hisobot
IAS 28 Investments in Associates and Joint Ventures	28-son BHXS Assotsiatsiyalashgan korxonalar va qo'shma korxonalar
IAS 32 Financial Instruments: Presentation	32-son BHXS Moliyaviy instrumentlar: taqdim qilish
IAS 34 Interim Financial Reporting	34-son BHXS Oraliq moliyaviy hisobot
IAS 36 Impairment of Assets	36-son BHXS Aktivlarning qadrsizlanishi
IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets	37-son BHXS Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar
IAS 38 Intangible Assets	38-son BHXS Nomoddiy aktivlar
IAS 40 Investment Property	40-son BHXS Investitsiyaviy ko'chmas mulk
IAS 41 Agriculture	41-son BHXS Qishloq xo'jaligi

8 Ye.Yu.Omelchenko, N.A.Borisova. Sovremennyy uchët denejnyx sredstv i kontrol ix dvijeniya //Jurnal ekonomicheskix issledovaniy tom 3 № 4 , 2017 <https://naukaru.ru/ru/nauka/article/16261/view>

9 1. International financial reporting standards. www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ SIC va IFRIC ro'yxatini shu manbadan olish mumkin. 2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/>



B. MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)	
IFRS 1 First-time Adoption of International Financial Reporting Standards	1-son MHXS Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash
IFRS 2 Share-based Payment	2-son MHXS Aksiyalar asosida to'lovlar
IFRS 3 Business Combinations	3-son MHXS Biznes birlashmalari
IFRS 4 Insurance Contracts	4-son MHXS Sug'urta shartnomalari
IFRS 5 Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations	5-son MHXS Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat
IFRS 6 Exploration for and Evaluation of Mineral Resources	6-son MHXS Foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash
IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures	7-son MHXS Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni ochiqlash
IFRS 8 Operating Segments	8-son MHXS Operatsion segmentlar
IFRS 9 Financial Instruments	9-son MHXS Moliyaviy instrumentlar
IFRS 10 Consolidated Financial Statements	10-son MHXS Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar
IFRS 11 Joint Arrangements	11-son MHXS Qo'shma tadbirkorlik
IFRS 12 Disclosure of Interests in Other Entities	12-son MHXS Boshqa tashkilotlardagi ishtirok to'g'risidagi axborotlarni ochiqlash
IFRS 13 Fair Value Measurement	13-son MHXS Adolatli qiymatni baholash
IFRS 14 Regulatory Deferral Accounts	14-son MHXS Tartibga solinadigan kechiktirilgan schyotlar
IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers	15-son MHXS Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushumlar
IFRS 16 Leases	16-son MHXS Ijara
IFRS 17 Insurance Contracts	17-son MHXS Sug'urta shartnomalari
IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements	18-son MHXS Moliyaviy hisobotni taqdim qilish va ochiqlash

Xalqaro standartlar va milliy standartlarni solishtirish hamda ular asosida xulosalar chiqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mamlakatimizda Buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BHMS) amaldagi tahriri bundan 25 yil muqaddam dastlab boshqa tilda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shuningdek, mazkur standartlardagi normalar bugungi kunga qadar amaldagi qonunchilik va xalqaro talablarga muvofiqlashtirilmagan. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi Qonun ijrosini ta'minlash hamda amaliyotdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 25 ta BHMSning davlat tilidagi matni tayyorlanib, mazkur BHMSning 20 tasi davlat tilida qabul qilinib hamda unifikatsiya qilish yo'li bilan bekor qilinib, o'rniga 15 ta BHMS yangi tahrirda davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Ularning qatorini quyidagi jadvalda keltiramiz (2-jadval).¹⁰

2-jadval

2024-yilda yangi tahrirda ishlab chiqilgan Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va Buxgalteriya hisobiga oid Nizomlar¹¹

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar	Sanasi
Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos	2024-yil 12-iyul, r/r. 3530
1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"	2024-yil 6-avgust, r/r. 3544
2-son BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar"	2024-yil 5-avgust, r/r. 3542
5-son BHMS "Asosiy vositalar"	2024-yil 9-avgust, r/r. 3546
7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"	2024-yil 9-avgust, r/r. 3547
8-son BHMS "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi"	2024-yil 26-iyul, r/r. 3537
9-son BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"	2024-yil 27-dekabr, r/r. 3592
10-son BHMS "Davlat yordamining hisobi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish"	2024-yil 24-iyul, r/r. 3534

¹⁰ <https://gov.uz/uz/imv/news/view/19328>

¹¹ Shu yerda ma'lumotlar asosida



11-son BHMS "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar"	2024-yil 25-iyul, r/r. 3535
12-son BHMS "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"	2024-yil 18-iyul, r/r. 3531
16-son BHMS "Buxgalteriya balansini tuzish sanasidan keyin xo'jalik faoliyatida yuz beradigan hodisalar va nazarda tutilmagan holatlar"	2024-yil 31-iyul, r/r. 3539
17-son BHMS "Kapital qurilishning pudrat shartnomalari"	2024-yil 23-iyul, r/r. 3533
19-son BHMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"	2024-yil 12-avgust, r/r. 3548
21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"	2024-yil 27-dekabr, r/r. 3593
23-son BHMS "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish"	2024-yil 2-avgust, r/r. 3540
Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi nizom	2024-yil 30-iyul, r/r. 3538
Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizom	2024-yil 5-avgust, r/r. 3543
Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizom	2024-yil 4-noyabr, r/r. 3567
Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona to'lovlari va yig'imlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizom	2024-yil 25-dekabr, r/r. 3590
Me'yoriy-huquqiy hujjatlar	Sanasi
A. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMSlar)	
Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos	2024-yil 12-iyul, r/r. 3530
1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"	2024-yil 6-avgust, r/r. 3544
2-son BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar"	2024-yil 5-avgust, r/r. 3542
5-son BHMS "Asosiy vositalar"	2024-yil 9-avgust, r/r. 3546
7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"	2024-yil 9-avgust, r/r. 3547
8-son BHMS "Konsolidasiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi"	2024-yil 26-iyul, r/r. 3537
9-son BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"	2024-yil 27-dekabr, r/r. 3592
10-son BHMS "Davlat yordamining hisobi va u to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish"	2024-yil 24-iyul, r/r. 3534
11-son BHMS "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar"	2024-yil 25-iyul, r/r. 3535
12-son BHMS "Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish"	2024-yil 18-iyul, r/r. 3531
16-son BHMS "Buxgalteriya balansini tuzish sanasidan keyin xo'jalik faoliyatida yuz beradigan hodisalar va nazarda tutilmagan holatlar"	2024-yil 31-iyul, r/r. 3539
17-son BHMS "Kapital qurilishning pudrat shartnomalari"	2024-yil 23-iyul, r/r. 3533
19-son BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"	2024-yil 12-avgust, r/r. 3548
21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"	2024-yil 27-dekabr, r/r. 3593
23-son BHMS "Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish"	2024-yil 2-avgust, r/r. 3540
Buxgalteriya hisobi Nizomlari	
Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi Nizom	2024-yil 30-iyul, r/r. 3538
Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizom	2024-yil 5-avgust, r/r. 3543
Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom	2024-yil 4-noyabr, r/r. 3567
Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona to'lovlari va yig'imlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi Nizom	2024-yil 25-dekabr, r/r. 3590

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va O'zbekiston Buxgalteriya hisobi milliy standartlari o'rtasidagi asosiy farqli jihatlar quyidagilardan iborat (3-jadval).



3-jadval
MHXS va O'zbekiston BHMSlari o'rtasidagi asosiy farqli jihatlar¹²

Farqlash belgilari	MHXS bo'yicha	O'zbekiston BHMS
Hisobot davri	Hisobot davri kalendar yil bilan bog'liq emas. Tashkilot mustaqil ravishda hisobot davrini omillardan kelib chiqib belgilaydi. Hisobot davrining tugash sanasi hisobot davridan boshqa hisobot davriga o'tganda muntazam takrorlanadi.	Hisobot yili kalendar yil qilib belgilangan. Hisobot davrining tugash sanasi 31-dekabr qilib belgilangan. Korxonalar faoliyat xususiyatlari, mavsumiylik, operatsion sikl qanday bo'lishidan qat'i nazar hisobot davrini belgilay olmaydi.
Hisobning yo'naltirilganligi	MHXS axborot foydalanuvchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Uning asosiy yo'nalishi moliyaviy hisobotlarning uyg'un (ahamiyatli) va haqqoniy bo'lishiga qaratilgan.	Texnik va huquqiy aspektlarga qaratilgan. Soliq qonunchiligi, bank qonunchiligi, Prezident Farmonlari va qarorlari ustuvorligi ta'minlangan.
Shakl va schyotlar rejasini	MHXS hisobot shakllari va schyotlar rejasini belgilamaydi. Korxonalar o'zining hisob siyosatida MHXS talablari asosida moliyaviy hisobot formatlari va ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqadi.	Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga va buxgalteriya yozuvlariga katta o'rin qaratilgan. Moliyaviy hisobot shakllari tasdiqlangan. Schyotlarni o'zgartirishga yoki moliyaviy hisobot shakllariga o'zgartirish kiritishga vakolat yo'q.
Tan olish va baholash	MHXS tan olish mezonlarini belgilab beradi. Asosiy masala obyektlarni adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash hisoblanadi. Baholash buxgalteriya hisobining bosh masalasi.	Hujjatlarda qayd qilingan baholar asos qilib olinadi. Bozor qiymatida baholash asosiy o'rin tutmaydi. Hujjatlashtirish asosiy mezon hisoblanadi.
Muvofiqlik konsepsiyasi	Buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy konsepsiyalaridan biri bu xarajatlar daromadlarga muvofiq kelishi, ya'ni tan olingan daromadlarni ishlab topishda sarflangan xarajatlar aks ettiriladi. Daromad va xarajatlar kassa metodi bo'yicha tan olinmaydi.	Daromadlar va xarajatlar hujjatlarga muvofiq tan olinadi. Qaysi xarajatlarning hujjatlari to'liq rasmiylashtirilgan bo'lsa, qaysi daromadlarga muvofiqligidan qat'i nazar tan olinadi.
Moliyaviy hisobotga munosabati	Asosiy e'tibor moliyaviy hisobotga qaratiladi. Uning kreativ, shaffof bo'lishi, axborotlarning ahamiyatli va haqqoniy bo'lishi, taqqoslanadigan, salmoqli va tushunarli bo'lishi asosiy mezonlaridir. Butun jarayon moliyaviy hisobotning shaffofligi va jozibadorligiga qaratiladi.	Asosiy e'tibor buxgalteriya hisobiga qaratiladi. Muhim ahamiyat buxgalteriya schyotlari va buxgalteriya o'tkazmalariga qaratiladi. Moliyaviy hisobot shakllari buxgalteriya schyotlaridagi ma'lumotlarni o'tkazish yo'li bilan tuziladi. Shaklni to'g'ri to'ldirish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kun holatida mamlakatimizda 680 ta aksiyadorlik jamiyati (AJ), 36 ta tijorat banki, 43 ta sug'urta tashkiloti, 947 ta yirik soliq to'lovchilar kategoriyasiga kiruvchi tashkilot MHXS asosida moliyaviy hisobotni tuzishga erishmoqda.


XULOSA VA TAKLIFLAR

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq:

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tashkilotlar Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi;

1-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" MHXSda ko'zda tutilgan tartibda MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobot eng kamida bir yil uchun taqqoslanadigan davrga ega bo'lishi kerak (1-rasm).

12 Manba: muallif ishlanmasi.


 1-rasm. MHXSlarini birinchi marta qo'llashda taqqoslanadigan davr¹³

Pul mablag'lari hisobini tartibga solishga mo'ljallangan asosiy xalqaro standartlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin. Ta'kidlash lozimki, aksariyat xalqaro standartlar pul mablag'lari hisobi bilan bog'liq. Chunki standartlarda u yoki bu obyektini hisobga olishga qaratilgan qoidalar belgilangan bo'lib, ularning harakati, albatta, pul mablag'lari bilan bog'liq hisoblanadi. Ularning qatorini quyida keltiramiz (4-jadval).

4-jadval

 Pul mablag'larini hisobga olishga mo'ljallangan xalqaro standartlar¹⁴

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	Ko'zda tutilgan masalalar
Conceptual Framework for Financial Reporting (Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari)	Umumiy foydalanishdagi moliyaviy hisobotni taqdim qilishning maqsadi, axborotlarning sifat tavsifiga qo'yiladigan talablar, moliyaviy hisobot va hisobot berayotgan tashkilot, moliyaviy hisobotning elementlari, tan olish va tan olishni tugatish, baholash, xususan, pul oqimlariga asoslangan baholash metodlari, axborotlarni taqdim etish va ochiqlash masalalarini belgilab beradi. Axborotlarning sifat tavsifiga qo'yiladigan talablar ikki guruhga bo'linadi: fundamental sifat tavsiflari va axborotlarning foydaliligini oshiradigan sifat tavsiflari.
IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements (18-son MHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim qilish va ochiqlash")	Ushbu standart 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim qilish" o'rniga ishlab chiqilgan va 2027-yil 1-yanvardan joriy qilinadi (kompaniyalar uni oldindan ham joriy qilishlari mumkin). Standartning maqsadi ma'lumotlarning jozibadorligi va taqqoslanuvchanligini oshirish hisoblanadi. Moliyaviy hisobotga qo'yiladigan umumiy talablar, jumladan, moliyaviy hisobotning maqsadi, moliyaviy hisobotning to'liq tarkibi (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, xususi kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, hisobotlarga ochiqlashlar va izohlar, o'tgan davrlarning taqqoslanadigan axborotlari hamda o'tgan davr boshidagi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot) yoritilgan. Yangi tahrirdagi standart bir qancha o'zgarishlarni joriy qildi.
IAS 7 Statement of Cash Flows (7-son BHXS "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot")	Ushbu standart kompaniyaning pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlarining tarixiy o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarni taqdim etish qoidalarini bayon etadi. Asosiy prinsiplar, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni taqdim etish, xorijiy valyutadagi oqimlar, sho'ba korxonalar, assotsiatsiyalashgan va qo'shma korxonalariga kiritilgan investitsiyalar, operatsiyalarni netto usulida aks ettirish hamda pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning shakli masalalari yoritib berilgan.
IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures (7-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar: axborotni ochiqlash")	Ushbu MHXSning maqsadi foydalanuvchilarga quyidagilarni baholash imkoniyatini beruvchi axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berishni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi: (a) moliyaviy instrumentlarning tashkilotning moliyaviy holatiga va moliyaviy natijalariga ta'siri; (b) hisobot davri davomida va hisobot davrining tugallanish sanasida korxonaning moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq risklarining xarakteri va ko'lami hamda tashkilot bunday risklarni qanday tartibda boshqarishi.

13 S. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: ,2019. – 555 b. 102-103-b. asosida tayyorlangan.

14 Manba: muallif ishlanmasi.



IFRS 9 Financial Instruments (9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar")	Ushbu standartning maqsadi moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar qismiga aloqador bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish prinsiplari belgilashdan iborat bo'lib, natijada ushbu axborotlarning axborot foydalanuvchilari tomonidan korxonaning kelgusi pul mablag'lari oqimlarining summasi, muddati va noaniqliklarini baholashga imkon beruvchi, uyg'un va foydali bo'lishi ta'minlanadi.
---	--

4-jadvalda keltirilgan xalqaro standartlar tarkibini yanada kengaytirish mumkin. Har bir standart ma'lum ma'noda pul mablag'lari harakatiga doir qoidalarni mujassamlashtirgan. Masalan, 16-son MHXS "Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar" standartining 23-bandida: "Asosiy vositalar obyektining boshlang'ich qiymati tan olish sanasida pul mablag'lari bilan zudlik bilan to'lash shartida baho ekvivalentini tashkil etadi. ..." deb ko'rsatilganligi asosiy vositalarning boshlang'ich tannarxini shakllantirishda pul to'lovlari asosiy mezon ekanligini anglatadi. Bunday holatlarni boshqa standartlarda ham ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пул-кредит сийесатининг 2022 йил ва 2023-2024 йиллар даврига мўлжалланган асосий йўналишлари [хттпс://сбу.уз/уплоад/медиалибрарий/12а/Пул_кредит-сийесатининг-2022_2024-йиллар-учун-асосий-йналишлари_Публикатсия-учун.пдф](https://сбу.уз/уплоад/медиалибрарий/12а/Пул_кредит-сийесатининг-2022_2024-йиллар-учун-асосий-йналишлари_Публикатсия-учун.пдф)
2. Ш.М.Мирзиёев. Ҳар бир корхонанинг барқарорлиги аниқ ҳисоб-китобга боғлиқ, раҳбарлар фаолияти шунга қараб баҳоланади. 2018 йил 17 апрел. [хттп://хс.уз/узкр/пост/шавкат-мирзиёев-ҳар-бир-корхонанингбарқарорлиги-аниқ-ҳисоб-китобга-боғлиқ-раҳбарлар-фаолияти-шунга-қараб-баҳоланади](http://хс.уз/узкр/пост/шавкат-мирзиёев-ҳар-бир-корхонанингбарқарорлиги-аниқ-ҳисоб-китобга-боғлиқ-раҳбарлар-фаолияти-шунга-қараб-баҳоланади)
3. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li. «MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS.» Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 285-292.
4. Б.Нидлз. (2003) Принципы бухгалтерского учета. –М.: Финансы и статистика, –496 с.134-б.
5. Либбй, Роберт. (1996) Финансиал асоунтинг /Роберт Либбй, Патрисиа А. Либбй, Даниел Г. Шорт. Ирвин, Принтед ин УСА, 752 п., 320-б.
6. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 293-298.
7. Боронов, Б. Ф. «Ёф-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш.» Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, -244 б (2023).
8. Shodi o'g'li R. S. BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – Т. 60. – №. 1. – С. 84-91.
9. Ҳермансон, Рогер Ҳ. (1995) Асоунтинг: а бусинесс перспестиве /Рогер Ҳ. Ҳермансон, Жамес Дон Эдвардс, Мичаел W. Маҳер. 6тх эд., Ирвин, Принтед ин тхе УСА, 926 п., 302-б.
10. Ларсон, Кермит Д. (1995) Финансиал Асоунтинг /Кермит Д. Ларсон, Паул Б. W. Миллер. 6тх эд. Ирвин, 686 п. 223-б.
11. Уразов К.Б, Пўлатов М.Е. (2020) Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик.-Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи", 558 бет. 74-бет.
12. Уразов К. Б. (2004) Бухгалтерия ҳисоби ва аудит: Олий ўқув юртлари учун.–Т.: «Ўқитувчи», –448 б., 51-б.
13. Бобононов О., Жуманиёзов К. (2002) Молиявий ҳисоб. Т., "Молия", 672 б., 39-б.
14. К.Уразов, Н.Самаров. (2024) Пул маблағлари ҳаракати тўғрисида ҳисоботнинг ахборот беришдаги чекловлари ва уларни барараф этиш йўллари //Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, март [хттпс://е-итт.уз/индекс.пхп/еитт/артисле/виеш/1029/967](https://e-itt.uz/индекс.пхп/еитт/артисле/виеш/1029/967)
15. Магомедов Р.Ф. и др. (2019) Учет денежных средств. //Ж. Экономика и социум. №5 (60). [хттпс://сайберленинка.ру/артисле/н/учет-денезхнийх-средств-2/виешер](https://сайберленинка.ру/артисле/н/учет-денезхнийх-средств-2/виешер)
16. Н.А.Галеева Н.А. (2023) Совершенствование бухгалтерского учета денежных средств на предприятии ОАО «Уссурийский». // Ж.Бухгалтерский, управленческий учет и аудит» // [хттпс://сайберленинка.ру/артисле/н/совершенствование-бухгалтерского-учета-движения-денезхнийх-средств-на-предприятии-оао-молочній-завод-уссурийский/виешер](https://сайберленинка.ру/артисле/н/совершенствование-бухгалтерского-учета-движения-денезхнийх-средств-на-предприятии-оао-молочній-завод-уссурийский/виешер)
17. Е.Ю.Омелчинко, Н.А. Борисова. (2017) Современный учет денежных средств и контрол их движения // [Журнал экономических исследований том 3 № 4](http://Журнал_экономических_исследований_том_3_№_4).
18. О.А.Воликов, Н.Ю.Помыткина. (2020) Организатсия бухгалтерского учета денежных средств в бюджетных учреждениях //Карелиан Ссиентифис Жоурнал. Т.9 №1 (30) [хттпс://сайберленинка.ру/артисле/н/организатсия-бухгалтерского-учета-денезхнийх-средств-в-бюджетнийх-учрезхдениях/виешер](https://сайберленинка.ру/артисле/н/организатсия-бухгалтерского-учета-денезхнийх-средств-в-бюджетнийх-учрезхдениях/виешер)
19. Т.Н.Кокина. (2009) Учет денежных средств и анализ их исползования в коммерческих организатсиях. Автореферат на соиск. уч степени к.е.н. . Москва-9-б. /[хттпс://core.ac.uk/download/pdf/197386665.pdf](https://core.ac.uk/download/pdf/197386665.pdf)/
20. Б.Боронов. (2020) Корхоналар молиявий активлари ҳисобини такомиллаштириш. PhD диссертатсияси. Тошкент, 42-б.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100